

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



2021 йил 9-сон



Бош муҳаррир: Наманган давлат университети ректори С.Т.Тургунов

Масъул муҳаррир: Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор М.Р.Қодирхонов

Масъул муҳаррир ўринбосари: Илмий тадқиқот ва илмий педагогик кадрлар тайёрлаш бўлими бошлиғи Р.Жалалов

ТАҲРИРҲАЙЪАТИ

Физика-математика фанлари: акад. С.Зайнобиддинов, акад. А.Аъзамов, ф-м.ф.д., доц. М.Тўхтасинов, ф-м.ф.д., проф. Б.Саматов, ф-м.ф.д., доц. Р.Хакимов, ф-м.ф.д. М.Рахматуллаев.

Кимё фанлари: акад.С.Рашидова, акад. А.Тўраев, акад. С.Нигматов, к.ф.д., проф.Ш.Абдуллаев, к.ф.д., проф. Т.Азизов.

Биология фанлари: акад. К.Тожибаев, акад. Р.Собиров, б.ф.д. доц.А.Баташов, б.ф.н.

Техника фанлари: - т.ф.д., проф. А.Умаров, т.ф.д., проф. С.Юнусов.

Қишлоқ хўжалиги фанлари: – г.ф.д., доц. Б.Камалов, қ-х.ф.н., доц. А.Қазақов.

Тарих фанлари: – акад. А.Асқаров, с.ф.д., проф. Т.Файзуллаев, тар.ф.д., проф. А.Расулов, тар.ф.д., проф. У.Абдуллаев.

Иқтисодиёт фанлари: – и.ф.д., проф.Н.Махмудов, и.ф.д., проф.О.Одилов.

Фалсафа фанлари: – акад., Ж.Бозорбоев, ф.ф.д., проф. М.Исмоилов, ф.ф.н., О.Маматов, PhD Р.Замилова.

Филология фанлари: – акад. Н.Каримов, фил.ф.д., проф.С.Аширбоев, фил.ф.д., проф. Н.Улуқов, фил.ф.д., проф. Ҳ.Усманова. фил.ф.д.,проф. Б.Тухлиев, фил.ф.н, доц.М. Сулаймонов.

География фанлари: - г.ф.д., доц. Б.Камалов, г.ф.д., проф.А.Нигматов.

Педагогика фанлари: - п.ф.д., проф. У.Иноятгов, п.ф.д., проф. Б.Ходжаев, п.ф.д., п.ф.д., проф. Н.Эркабоева, п.ф.д., проф.Ш.Хонкелдиев, PhD П.Лутфуллаев.

Тиббиёт фанлари: – б.ф.д. Ғ.Абдуллаев, тиб.ф.н., доц. С.Болтабоев.

Психология фанлари – п.ф.д.,проф З.Нишанова, п.ф.н., доц. М.Махсудова

Техник муҳаррирлар: Н.Юсупов.

Таҳририят манзили: Наманган шаҳри, Уйчи кўчаси, 316-уй.

Тел: (0369)227-01-44, 227-06-12 **Факс:** (0369)227-07-61 **e- mail:** ilmiy@inbox.uz

Ушбу журнал 2019 йилдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Раёсати қарори билан физика-математика, кимё, биология, фалсафа, филология ва педагогика фанлари бўйича Олий аттестация комиссиясининг диссертациялар асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатида киритилган.

“НамДУ илмий ахборотномаси–Научный вестник НамГУ” журнали Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигининг 17.05.2016 йилдаги 08-0075 рақамли гувоҳномаси ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги (АОКА) томонидан 2020 йил 29 август куни 1106-сонли гувоҳнома га биноан чоп этилади. “НамДУ Илмий Ахборотномаси” электрон нашр сифатида халқаро стандарт туркум рақами (ISSN-2181-1458)га эга НамДУ Илмий-техникавий Кенгашининг 14.09.2021 йилдаги кенгайтирилган йиғилишида муҳокама қилиниб, илмий тўплам сифатида чоп этишга рухсат этилган (**Баённома № 9**). Мақолаларнинг илмий савияси ва келтирилган маълумотлар учун муаллифлар жавобгар ҳисобланади.

НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021



7. Ўзбекистон Республикаси Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги тўғрисидаги низом тасдиқланади. <https://kun.uz/news/2020/03/06/mahalla-va-oilani-qollab-quvvatlash-vazirligining-asosiy-vazifalari-belgilanadi>
8. Ўзбекистон Республикаси Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги тўғрисидаги низом тасдиқланади. <https://kun.uz/news/2020/03/06/mahalla-va-oilani-qollab-quvvatlash-vazirligining-asosiy-vazifalari-belgilanadi>
9. М.Тешабоев Соғлом турмуш тарзи ва соғлом бола., Монография. – Тошкент : “ТАМАДДУН”, 2014й., 83-бет
10. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Кекса авлод вакиллариининг жамиятдаги ўрни ва ижтимоий фаоллигини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 27.09.2019 й. п 816 сонлиқарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz),2019 йил 28 сентябрь
11. Содиқова Шоҳида Марҳабоевна. Жамиятни модернизациялаш жараёнида кексаларни ижтимоий ҳимоялашнинг социологик таҳлили. Докторлик диссертация автореферати. 22.00.02 — ижтимоий тузулиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи. Социология фанлари. Тошкент., 2016.6-бет
12. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Кекса авлод вакиллариининг жамиятдаги ўрни ва ижтимоий фаоллигини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 27.09.2019 й. п 816 сонлиқарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz),2019 йил 28 сентябрь
13. «Сила возраста: уроки старости для семей и молодежи / под ред. Дж. Батталья»: Алетеия; Санкт-Петербург; 2016 год – 4 ст

BARQAROR TARAQQIYOT:TIZIMLI TAHLIL

Pulatov Jaxongir Nazirovich

Navoiy viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish
hududiy markazi dotsenti

falsafa fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Tel:937287186 pulatovjahongir00@gmail.com

***Annotatsiya:** maqolada O'zbekistonning rivojlanish strategiyasi, tarixiy rivojlanish xususiyatlari, o'tish davri muammolari va umumbashariy taraqqiyot tendensiyalari, barqaror rivojlanish maqsadlari hamda inson taraqqiyotini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari tizimli tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** barqaror taraqqiyot, inson huquqlari, sihat-salomatlik, ta'lim, ijtimoiy himoya.*

SUSTAINABLE DEVELOPMENT: A SYSTEMAL ANALYSIS

Pulatov Jaxongir Nazirovich

Associate Professor of the Navoi Regional Center for Retraining and Advanced Training of
Public Education, doctor of Philosophy (PhD)

Tel: 937287186 pulatovjahongir00@gmail.com



Annotation: *The article provides a systematic analysis of Uzbekistan's development strategy, historical development features, problems of transition and global development trends, sustainable development goals and priorities for human development.*

Keywords: *sustainable development, human rights, health, education, social protection.*

УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ: СИСТЕМНЫЙ АНАЛИЗ

Пулатов Джакхонгир Назирович

Доцент Навоийского областного центра переподготовки и повышения квалификации
народного образования, доктор философских наук (PhD)

Телефон: 937287186 pulatovjahongir00@gmail.com

Аннотация: *В статье дан систематический анализ стратегии развития Узбекистана, исторических особенностей развития, проблем переходного периода и глобальных тенденций развития, целей устойчивого развития и приоритетов человеческого развития.*

Ключевые слова: *устойчивое развитие, права человека, здоровье, образование, социальная защита.*

O'zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasi, insonning tabiiy huquqlari va ularning ijtimoiy jihatdan himoya mexanizmi tendensiyalarining chuqur tahliliga asoslangan holda har tomonlama ishlab chiqilgan. Mamlakatimiz oldida turgan yuksak strategik maqsad va vazifalar haqida tahlil qilganda "O'zbekiston va uning bag'rikeng xalqi tinchliksevar siyosat yuritish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash tamoyillarini amalga oshirish pozitsiyasida" [Mirziyoyev SH. 2016: b.11] sobitqadamlik bilan borayotganligi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ilgari surilgan barqaror taraqqiyot dasturlari bilan uyg'unlashgandir.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan O'zbekiston hamkorligining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida o'zaro faol siyosiy muloqotni yo'lga qo'yish hisoblanadi. O'zbekiston o'z ovozi va mavqeyiga ega bo'lgan a'zo davlat sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti sessiyalarida inson barqaror rivojlanishiga oid muhim, dolzarb va ustuvor vazifalarni qo'yib kelmoqda. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlari ishtirokida har yili o'tkaziladigan sammitda o'z davlatining iqtisodiy, ijtimoiy vaziyatiga oid muammolar bilan bir qatorda, inson barqaror taraqqiyotiga oid takliflar bermoqda. Jumladan, 1993 yilda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov Birlashgan Millatlar tashkilotining 48 - sessiyasida birinchi marta dunyo hamjamiyatini terrorizmga qarshi kurashish uchun hamkorlik qilishning zaruratini taklif qilgan bo'lsa, 2017 -yil 19 - sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasining 72 - sessiyasida "Yoshlar huquqlari to'g'risida"gi halqaro konvensiyasini ishlab chiqish, "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilishni taklif etdi, shuningdek xalqaro jamoatchilikka Markaziy Osiyoda suv resurslaridan oqilona foydalanish, Orol dengizining qurishini bartaraf qilish, qo'shni mamlakatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash va Afg'onistonda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yordam berish zarurligini asosladi. Natijada, Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasidagi ko'p asrlik do'stlik, yaxshi



qo'shnichilik, bir-birini qo'llab-quvvatlash va amaliy hamkorlik qilish bo'yicha bir qator muhim hujjatlar imzolandi. Bu kabi amaliy tadbirlar provardida O'zbekistonning Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan o'zaro savdo aloqalaridagi tovar ayirboshlash hajmi sezilarli ravishda oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kunda yurtimizda "Jamiyat-islohotlar tashabbuskori" ezgu g'oyasi bosqichma-bosqich amaliyotda o'z ifodasini topmoqda. Zero, har bir davrning o'ziga xos siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy ehtiyojlari va unga erishish yo'llari, munosabatlari, tafakkur tarzi bor. Ana shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, 2017- yilda O'zbekistonning tarixiy taraqqiyot va rivojlanishida yangi bosqich boshlandi. Yangilanayotgan O'zbekistonning "Harakatlar strategiyasi" doirasida qabul qilingan 90 ta qonun, 2000 ta qaror inson taraqqiyotini ta'minlashga yo'nalgan. Bu esa, mamlakat siyosiy rahbarining vatanparvarligi, insonparvarligi va eng muhimi yuksak ma'suliyatining ifodasidir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 - yil 20 - oktyabrdagi "O'zbekiston 2030 - yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori inson taraqqiyotiga yangi ruh berdi.

2017-2021-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"da belgilangan vazifalarning ijrosi sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, pensionerlar, nogiron, yolg'iz keksalarni ijtimoiy himoya qilish, uy joyga ehtiyojli fuqarolarga imtiyozli shartlar asosida ipoteka kreditlari ajratish, shahar va qishloq xududi infratuzilmasini takomillashtirishda o'z ifodasini topmoqda. Bu kabi islohotlar inson taraqqiyoti konsepsiyasining O'zbekiston modelining ifodasidir. Biroq, inson barqaror taraqqiyotiga oid qarorlar e'lon qilinsa-da, davlat rahbari sa'y-harakatlari bilan ularning ijrosi ta'minlansa-da, inson dunyoqarashi o'zgarmas, odamlarda siyosiy hushyorlik shakllanmas ekan, bu qaror ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. Shu bois, eng katta mas'uliyat fuqarolarning o'z-o'zini tarbiyasiga bog'liq. respublikamizda barcha sohalarga informasion texnologiyalarning joriy qilinishi ilmiy texnik taraqqiyotning inqilobiy rivojlanishiga va inson bunyodkorlik salohiyatining mislsiz o'sishiga olib kelishi asoslangan.

O'zbekistonda "Inson taraqqiyoti" konsepsiyasining ustuvor vazifalari :

1. Sihat-salomatlik. Aholi salomatligini saqlash, sog'lom turmush tarzini keng jamoatchilikka targ'ib qilishda mamlakatimizda sport sohasini rivojlantirishga oid amalga oshirilayotgan islohotlar o'z samarasini bermoqda. Bu sohani rivojlantirishga qaratilayotgan amaliy chora-tadbirlar nafaqat aholi salomatligini yaxshilashni, balki aholi turmushining sifatini yaxshilashga doir muammolar ijobiy hal etilishini ham anglatadi.

Odamlarda bebaho boylik bo'lgan o'z sog'lig'ini saqlashga to'g'ri va mas'uliyatli munosabatda bo'lishga, sog'lom turmush tarzini olib borishga, o'z hayot faoliyatini oqilona tashkil qilishga, zararli odatlardan voz kechishga, sog'lom bo'lishga, jismoniy va ruhiy jihatdan uyg'un kamol topishga intilishga yo'naltirilgan hayotiy falsafani shakllantirish lozim.

2. Onalikni muhofaza qilishni yaxshilash. Onalikni muhofaza qilish har qanday davlatning asosiy vazifasi hisoblanadi. Xususan, tibbiyot sohasini rivojlantirish bo'yicha Prezidentimizning 130 yaqin farmonlari va qarorlari qabul qilindi. Bu esa, onalikni muhofaza qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligidan dalolatdir. Onalikni muhofaza qilish uchun bir qator ustuvor vazifalarni amalga oshirishni talab qiladi. Bular :



- onalikni muhofaza qilish bo'yicha avvalo oilani moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, yosh qizlarni milliy qadriyatlar asosida oilaga tayyorlash borasida maktab va oila hamkorligini hayotiylikini oshirish, ko'p farzandli oilalarga beriladigan nafaqa pul miqdorini oshirish, o'z oilaviy tadbirkorligini rivojlantirish uchun imtiyozli kredit bilan ta'minlash;
- farzandlar tarbiyasi bilan mashg'ul onalar ehtiyojini qondirish uchun zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalari salmog'ini keskin oshirish;
- mehnat bilan band bo'lgan onalarga ijtimoiy kelib chiqishi va mol-mulkidan qat'iy nazar farzand tug'ish va ularni sog'lom voyaga yetkazish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berish;
- gender tenglik masalasiga jiddiy e'tibor berish, tibbiyot infratuzilmasini mustahkamlash, mahallarda "Yosh onalar" innovatsion maktabini joriy qilish natijasida onalikni muhofaza qilish ta'minlanadi. Bu esa, jamiyatda sog'lom, teran tafakkurli, farzandlarning voyaga yetishiga zamin yaratadi. Natijada, inson taraqqiyoti rivojlanadi.

3. Ta'lim. Jamiyatning taraqqiyoti bevosita yer osti va yer usti boyliklar bilan emas, balki insonni intellektual salohiyati bilan o'lchanadi. Buning uchun insonlarga ta'lim olish uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berishni davrni o'zi talab qilmoqda. Insonlar moddiy va ma'naviy jihatdan kamol topishi, turmush sharoiti yaxshilanishi, adolatli mehnat sharoitlarida ishlashi, jamiyatning faol ishtirokchisiga aylanishi bevosita ta'lim orqali erishiladi. Respublikamizda ta'lim sohasini rivojlantirish uchun tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, xorijiy davlatlar oliygohlarining filiallari soni yil sayin ortib bormoqda. Kadrlar o'rtasida raqobat muhitini shakllantirish uchun oliy ta'limga qabul kvotalari oshib bormoqda. Bu esa, Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Ta'lim barcha uchun" konsepsiyasiga hamohangdir.

Inson taraqqiyoti bo'yicha yuqori natijalarga erishgan davlatlar tajribasini o'rgangan holda quyidagi vazifalar ijrosini ta'minlashni taqozo etadi:

- mamlakatimizning barcha fuqarolariga, jumladan uzoq hududlarda istiqomat qiluvchi yoshlarning zamonaviy bilim egallashi, nufuzli oliygohlarda ta'lim olishi uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etish, shuningdek oliy o'quv yurtlariga kirish uchun qabul kvotalarini yigitlar va qizlarga teng miqdorda sharoitlarni yaratish;
- ta'limning ishlab chiqarish bilan bog'liqligini ta'minlash;
- maktabgacha ta'lim, xalq ta'lim va oliy ta'lim bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash;
- ta'limda miqdor o'sishdan, sifat o'sishiga erishish, raqobat muhitini shakllantirish, mehnatga haq to'lashda xodimning foydali ish ko'rsatishiga qarab rag'batlantirish tizimini joriy qilish natijasida ta'lim inson taraqqiyotining asosiy omili sifatida namoyon bo'ladi.

4. Ijtimoiy ta'minot. Inson farovon yashashi uchun davlatning ijtimoiy himoya funksiyasi yaxshi ishlashiga bog'liq. O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi asosiy qomusimizning 39 - moddasida "Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega" [Konstitutsiya. 2017: b 16.] ligi mustahkamlanib qo'yilgan. Ijtimoiy ta'minot davlatimiz mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab ijtimoiy jihatdan nochor aholi qatlamlarining faol hayotga olib kirish, ularni har tomonlama qo'llab - quvvatlash davlat siyosati darajasi sifatida qaralmoqda. Xususan, 1997- yildan boshlab har bir yilga alohida nom berilishi va bu nom bo'yicha davlat dasturlari qabul qilinishini o'zi



inson taraqqiyotining muvaffaqiyatidir. Bundan tashqari aholini ijtimoiy himoya tizimini yaxshilash maqsadida 2013 - yilda Mehnat va Ijtimoiy ta'minot vazirligi yagona tizim Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga birlashdi. Bundan asosiy maqsad aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qisimini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashdan iboratdir.

Bugungi kunda "kam ta'minlangan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj 5 mingta oilaga, jumladan, nogironligi bo'lgan ayollarga ipoteka krediti asosida arzon uy-joy sotib olish uchun 116 milliard so'mdan ziyod boshlang'ich badal to'lab berildi"[Mirziyoyev SH. 2020: 24 yanvar lex.uz]. Bu esa, xalqimizga munosib turmush sharoitini yaratib berish va ularda rozilik tuyg'usini shakllanishiga xizmat qiladi.

5. Inson huquqlari. 1948 - yilning 10 - dekabrda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomini to'ldirish va barcha joyda har bir insonning huquqlarini kafolatlash maqsadida qabul qilingan. O'sha deklaratsiya qabul qilingan sana, ya'ni 10 - dekabr Inson huquqlari kuni sifatida dunyohamjamiyatida inson huquqlari sohasidagi xabardorlikni va xatti-harakatlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida nishonlanadi. Deklaratsiya insoniyatning barcha a'zolariga xos bo'lgan qadr-qimmat, ularning teng va ajralmas huquqlarining tan olinishi erkinlik, adolat va umumiy tinchlikning asosi ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu g'oya Birlashgan Millatlar Tashkiloti faoliyati barcha yo'nalishlarining asosini tashkil etadi.

Yurtimizda inson huquqlarini himoya qilish borasidagi amaliy chora-tadbirlar aholining siyosiy savodxonligi oshirishga xizmat qilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan xalq qabulxonalarining tashkil etilishi, viloyat mutasaddi tashkilot rahbarlari ishtirokida sayyor uchrashuvlar o'tkazilishi, Ommaviy axborot vositalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, blogerlar faoliyatiga keng imkoniyatlar berilishi inson manfaatlari, huquq va erkinliklari davlat tomonidan to'laqonli himoya qilinayotganligining isbotidir. Inson huquqlarini ta'minlashda sud va tergov sohasida bir qator o'zgarishlar amalga oshirishni ta'lab qilmoqda. Buning natijasida ma'muriy, fuqarolik, jinoiy, mehnat kabi kodekslashtirilgan qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni taqozo etadi. Bundan tashqari aholining ish bilan band bo'lgan qismi va yangi ish o'rinlarini vujudga keltiriyotgan hududlarda aholining yashash joyini o'zgartirishga bo'lgan ehtiyojini qondirish bo'yicha islohotlarni hayotga tadbiq etish dolzarbligicha qolmoqda.

Prezidentimiz tashabbusi bilan fuqarolikka oid munosabatlar liberallashtirilishi natijasida uzoq yillardan buyon O'zbekistonda istiqomat qilib kelayotgan fuqarolarga barcha huquq va erkinliklaridan foydalanish imkoniyatini berilishi, yurtimizda 1995 - yilgacha kelib yashayotgan boshqa millat vakillariga to'g'ridan - to'g'ri O'zbekiston fuqaroligini berilishi inson huquq va erkinliklari davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligidan dalolatdir.

Bu esa, Konstitusiyamizning 18 - moddasida keltirilgan "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar qonun oldida tengligi"[Konstitutsiya.2017: b 9.] prinsipi xalqaro huquq normalariga mos kelishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilinayotgan inson farovonligi, sog'lom yashashi, uzoq umr ko'rishi, kafolatlangan ta'lim olishi, o'z huquq va imoniyatlaridan erkin foydalanishga oid konvensiyalarini ijrosini ta'minlash borasida



O'zbekistonda ham turli aholi qatlamlarini farovonligi va qadr-qimmatini ta'minlashga yo'naltirilgan milliy dasturlar qabul qilinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Mirziyoev SH. " Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" -Toshkent: O'zbekiston, 2016.- 11 b.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent: O'zbekiston, 2017.9-16 b.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoev Oliy majlisga murojatnomasi 2020 yil 24 yanvar lex.uz

MILLIY G'OYA TIZIMI TARKIBIY TUZILISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sapayev Valisher Odilbek o'g'li –
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada milliy g'oyani tizim sifatida o'rganishning o'ziga xos hususiyatlari, milliy g'oya tizimi tarkibiy tuzilishining o'ziga xos hususiyatlari uning nazariy-metodologik jihatlar haqida fikrlar yuritilgan. Shuningdek, milliy g'oya tizimini tashkil etuvchi elementlarni tarkibiy- funksional jihatdan tahlil qilingan. Maqola so'nggida muallifning shaxsiy mulohazalari va xulosalari keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** tizim, element, g'oya tizimi, milliy g'oya tizimi, milliy g'oya negizlari, milliy g'oya maqsadlari, inson ongi va tafakkuri.*

ХАРАКТЕРИСТИКА СТРУКТУРЫ СИСТЕМЫ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИДЕЙ

Сапаев Валишер Одилбек огли -
независимым исследователем в Ургенчском государственном университете.

***Аннотация:** В статье рассматриваются особенности исследования национальной идеи как системы, особенности структуры системы национальных идей, ее теоретические и методологические аспекты. Также анализируется структурно-функциональный анализ элементов, составляющих систему национальных представлений. Статья завершается личными комментариями и выводами автора.*

***Ключевые слова:** система, элемент, система идей, система национальной идеи, основы национальной идеи, цели национальной идеи, человеческое сознание и мышление.*

CHARACTERISTICS OF THE STRUCTURAL STRUCTURE OF THE SYSTEM OF NATIONAL IDEAS

Sapayev Valisher Odilbek uglu -
independent researcher at Urgench State University.

***Annotation:** This article discusses, the peculiarities of the study of the national idea as a system, the peculiarities of the structural structure of the system of national ideas, its theoretical and methodological aspects. The structural and functional analysis of the elements that make up the system of national ideas is also analyzed. The article concludes with the author's personal comments and conclusions.*



26	Ўзбекистонда тарқалган <i>phyllactinia lev. (erysiphaceae)</i> туркуми турларига оид дастлабки маълумотлар	
	Тешабоева.Ш. А, Исломиддинов З.Ш, Абдуразаков А. А, Холмурадова.Т.Н,Ғаффоров Ю.Ш	144
27	<i>Aegilops l.</i> туркуми айрим турлари уруғларининг морфологик белгилари	
	Қурбонова М.З, Эрматова Г.З, Имирсинова А. А	152

07.00.00

**ТАРИХ ФАНЛАРИ
ИСТОРИЧЕСКИЕ НАУКИ
HISTORICAL SCIENCES**

28	Икки эл қаҳрамони	
	Тишабаева Л.А	158
29		

08.00.00

**ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ
ECONOMIC SCIENCES**

30	Foreign experience of state support for the development of small business	
	Kurpayanidi K. I	162
31	Инновацион иқтисодиётда аёллар тадбиркорлигини ривожлантириш истиқболлари	
	Ахунова М. Х	166

09.00.00

**ФАЛСАФА ФАНЛАРИ
ФИЛОСОФСКИЕ НАУКИ
PHILOSOPHICAL SCIENCES**

32	Баҳовуддин Валад ва Жалолиддин Румийнинг фалсафий таълимотидаги ўзаро диалектик боғлиқликлар	
	Чўлиева В.Э	172
33	G'azolliiy, Forobiy va Ibn Sino qarashlarida komil inson konsepsiyasi	
	Эшпулатов И.С	178
34	Salomatlik fenomeni va uning ijtimoiy-falsafiy tahlili	
	Iskandarov N.Sh	184
35	Abu Ali Ibn Sinoning "Al-Ishorat va At-Tanbihot" asaridagi "Oriflar maqomi"ga bergan ta'rifi va uning falsafiy tahlili	
	Juraev Sh.S	187
36	Учинчи ренесанснинг пойдевори маънавий юксалишдир	
	Найманова Д.Х	191
37	Barqaror taraqqiyot:tizimli tahlil	
	Pulatov J.N	198
38	Milliy g'oya tizimi tarkibiy tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari	
	Sarayev V.O	203